
Bayram tadbirlari davom etmoqda

Qo'shtepa tumanidagi "Qorajiyda" mahallasida istiqomat qiluvchi yosh tadbirkor Odiabonu Mamasodiqova 25 o'rinli oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'ydi. "Maqsadxonim volidam" deb nomlangan ushbu maktabgacha talim tashkilotida bolajonlar uchun rus va ingliz tili, mental arifmetika, gimnastika hamda musiqa to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, 3 ta ish o'rni yaratilgan.

Yangi yil bayrami munosabati bilan ushbu maktabgacha talim tashkilotida bolajonlar uchun bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda bolajonlar Yangi yil bayramiga bag'ishlab o'zlari yod olgan she'r, qo'shiq va raqslarni ijro etishib, Qorbobodan bayram sovg'alarini olishdi.

2024-12-24 08:48:39